

Morphological Features of Uzbek Dialects

University of Business and Science 2nd-year student, Uzbek Language and Literature

Raimberdiyeva Sarvinoz Muzaffar qizi

University of Business and Science 2nd-year student, Uzbek Language and Literature

Ergasheva Oydinaxon Dilshodbek qizi

Abstract. This article comprehensively analyzes the morphological features found in regional dialects of the Uzbek language. During the study, the formal and functional changes of plural, possessive, conjugation and verb tense suffixes used in Uzbek dialects are highlighted on the basis of examples. Also, the morphological differences between the literary Uzbek language and various regional dialects are studied on the basis of comparative analysis, and their formation factors, historical roots and linguistic significance are revealed. The article separately considers the system of morphological units found in the dialects of the Karluk, Kipchak and Oghuz groups of the Uzbek language, and their specific features and impact on the literary language are substantiated by scientific evidence. In addition, the reduction of suffixes in dialects, the transformation of morphological forms as a result of phonetic changes, as well as the features of some ancient grammatical forms were studied.

Keywords: Uzbek language, dialect, morphology, morphological features, suffixes, conjugation, possession, verb forms, Karluk dialects, Kipchak dialects, Oghuz dialects, dialectology, literary language.

O‘zbek shevalarining morfologik xususiyati

University Of business and Science universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Raimberdiyeva Sarvinoz Muzaffar qizi

University Of Business and Science universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2 kurs talabasi

Ergasheva Oydinaxon Dilshodbek qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilining hududiy shevalarida uchraydigan morfologik xususiyatlar har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'zbek shevalarida qo'llaniladigan ko'plik, egalik, kelishik va fe'l zamon qo'shimchalarining shakli va funksional o'zgarishlari misollar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, adabiy o'zbek tili bilan turli hududiy shevalar o'rtasidagi morfologik tafovutlar qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, ularning shakllanish omillari, tarixiy ildizlari va lingvistik ahamiyati ochib beriladi.

Maqolada o'zbek tilining qarluq, qipchoq va o'g'uz guruhiga mansub shevalarida uchraydigan morfologik birliklar tizimi alohida ko'rib chiqilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va adabiy tilga ta'siri ilmiy dalillar bilan asoslanadi. Bundan tashqari, shevalarda qo'shimchalarning qisqarishi, fonetik o'zgarishlar natijasida morfologik shakllarning transformatsiyaga uchrashi, shuningdek, ayrim qadimgi grammatik shakllarning xususiyatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar:

o'zbek tili, sheva, dialekt, morfologiya, morfologik xususiyatlar, qo'shimchalar, kelishik, egalik, fe'l shakllari, qarluq shevalari, qipchoq shevalari, o'g'uz shevalari, dialektologiya, adabiy til.

Kirish

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lib, u xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va tafakkurini o'zida aks ettiradi. Har bir milliy til o'zining adabiy shakli bilan bir qatorda hududiy shevalar va lahjalardan ham tashkil topgan murakkab tizimni tashkil etadi. O'zbek tili ham ana shunday ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, unda adabiy til bilan birga turli hududlarda shakllangan shevalar muhim o'rin tutadi.

O'zbek tilining shevalari tarixiy, ijtimoiy va geografik omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, ular tilning fonetik, leksik va ayniqsa morfologik tizimida o'ziga xos

xususiyatlarni namoyon etadi. Shevalardagi morfologik farqlar qo‘shimchalarning shakli, qo‘llanishi va grammatik funksiyalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holat o‘zbek tilining ichki taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganishda, shuningdek, adabiy til me‘yorlarini aniqlash va takomillashtirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tili ham turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, u ko‘p asrlilik tarixiy rivojlanish jarayonida turli hududiy shevalarga ajralgan. Ushbu shevalar fonetik, leksik va grammatik jihatdan bir-biridan farqlansa-da, ular umumiy til tizimining tarkibiy qismi sifatida yagona adabiy tilni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, morfologik sathda kuzatiladigan farqlar – qo‘shimchalarning shakli, qo‘llanishi va grammatik vazifasidagi tafovutlar – o‘zbek tilining tarixiy qatlamlari va dialektal rivojlanishini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shevalarning morfologik xususiyatlarini tadqiq etish nafaqat tilshunoslikning dialektologiya yo‘nalishi, balki adabiy til me‘yorlarini belgilash va takomillashtirish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy til ko‘p hollarda muayyan sheva asosida shakllansa-da, uning rivojlanishida boshqa hududiy nutq unsurlarining ham ta‘siri sezilarli bo‘ladi. Shu bois shevalardagi grammatik shakllarning tahlili tilning umumiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek adabiy tilida kelishiklar soni oltita bo‘lib, ularning shakliy va ma‘no xususiyatlari XX asrning 50-yillaridayoq professor A.G‘. G‘ulomovning «O‘zbek tilida kelishiklar» nomli asarida batafsil yoritilgan. 1973-yilda M. Shoinoyatova esa o‘zbek shevalaridagi kelishiklar tizimini maxsus tadqiq etib, mazkur mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Shevalarda kelishiklar turlicha qo‘llanadi: ayrim shevalarda oltita, ba‘zilarida yettita, boshqa birlarida beshta, hatto to‘rtta kelishik shakli uchraydi. Besh yoki to‘rtta kelishikka ega bo‘lgan shevalarda esa ikki kelishik vazifasini bitta qo‘shimcha bajaradi.

Bu hodisa shevalarning morfologik tizimi adabiy tilga nisbatan soddalashgan yoki o'ziga xos tarzda rivojlanganligini ko'rsatadi.

Masalan, Toshkent shevasida tushum va qaratqich kelishiklari unidan so'ng -ni qo'shimchasi, undoshdan so'ng esa uning fonetik o'zgarishga uchragan variantlari orqali ifodalanadi. Ushbu shevada kelishik qo'shimchalari 19 xil fonetik shaklda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuningdek, Qarshi shevasida tushum va qaratqich kelishiklari -ni // -ti qo'shimchalari orqali, o'rin-payt va jo'nalish kelishiklari esa -ya, -ga // -ka // -qa qo'shimchalari yordamida ifodalanadi.

Bosh kelishik o'zbek shevalarida adabiy tildagi kabi alohida grammatik ko'rsatkichga ega emas va nol shakl (Ø) orqali ifodalanadi. Qaratqich kelishigining ifodalanishi esa y-lovchi va dj-lovchi shevalarda ma'lum darajada farq qiladi.

Dj-lovchi shevalarda qaratqich kelishigi qo'shimchasi bir necha fonetik variantlarda qo'llanadi. Unidan so'ng kelganda qattiq o'zak-negizlarda -ning shakli ishlatiladi: ataning. Yumshoq o'zak-negizlarda esa -ning shakli qo'llanadi: enening. O'zak-negizda lablangan unli tovush mavjud bo'lsa, qo'shimcha -nung, -nüng, -dung, -düng, -tung, -tüng shakllarida ham uchraydi: konunung, urushtung.

Undoshdan so'ng kelganda qo'shimcha o'zak oxiridagi undoshning jarangli yoki jarangsizligiga qarab o'zgaradi. Jarangli undosh bilan tugagan qattiq o'zak-negizlarda -ding (tavding), yumshoq o'zak-negizlarda esa -ding yoki -ding shakllari ishlatiladi: bizding. Jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq o'zak-negizlarda -ting yoki -ning, yumshoq o'zak-negizlarda esa fonetik moslashuv natijasida o'zgargan variantlar uchraydi.

Y-lovchi shevalarda esa qaratqich kelishigi asosan -ni, -di // -ti qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Bu qo'shimcha ayni vaqtda tushum kelishigi vazifasini ham bajaradi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir xil shakl orqali ifodalanib, kontekst asosida farqlanadi: uyni (qaratqich yoki tushum ma'nosida).

Toshkent va Namangan shevalarida qaratqich kelishigi qo‘shimchasi -ni o‘zi qo‘shiladigan o‘zak-negizning qanday undosh bilan tugashiga qarab bir necha xil shaklga ega bo‘ladi. Iqon, Qorabuloq va Hazorasp shevalarida qaratqich kelishigi qo‘shimchasi unlidan so‘ng -ning, -nüng, undoshdan so‘ng esa -ing, -ing tarzida ifodalanadi: ating, dashing, tuyzing.

Tushum kelishigi

Tushum kelishigi qo‘shimchasi ifodalanish jihatidan y-lovchi va dj-lovchi shevalarda farq qiladi.

Dj-lovchi shevalarda tushum kelishigi quyidagicha ifodalanadi.

Unlidan so‘ng:

qattiq o‘zak-negizlarda -ni (atanı);

yumshoq o‘zak-negizlarda -ni (eneni).

Tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘zak-negizda lablangan unli tovushlar mavjud bo‘lsa -nu, -tu shakllarida ham uchraydi: tulkunu, qozunu.

Undoshdan so‘ng:

jarangli undosh bilan tugagan qattiq o‘zak-negizlarda -dı (tavdı);

yumshoq o‘zak-negizlarda -di (keldi);

jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq o‘zak-negizlarda -tı (attı);

yumshoq o‘zak-negizlarda -ti (itti).

Tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘zak-negizda lablangan tovushlarning bo‘lishiga qarab -du, -dü, -tu, -tü shakllarida ham keladi: yoldı, sozdı. Masalan: Sozdı bilgän söyläsın, qoshiqtu bilgän tinglasın.

Y-lovchi shevalarda esa bu kelishik -ni, -dı // -tı qo‘shimchalari orqali ifodalanadi: sen bashını tartasan (Andijon shevasi).

Toshkent shevasida tushum kelishigi qo‘shimchasi -ni o‘zi qo‘shilgan o‘zak-negizning qanday undosh bilan tugashiga qarab turli fonetik shakllarga ega bo‘ladi:

-k1 (pedagogk1), -m1 (simm1), -dj1 (garadj1), -r1 (temirr1), -t1 (tutt1), -s1 (miss1), -l1 (koll1),
-x1 (mıxx1), -sh1 (eshsh1), -ch1 (chachch1), -q1 (oqq1), -g‘1 (tugg‘1).

Jo‘nalish kelishigi

O‘zbek shevalarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining ifodalanishi ham y-lovchi va dj-lovchi shevalarda ma‘lum farqlarga ega.

Dj-lovchi shevalarda jo‘nalish kelishigi quyidagicha ifodalanadi.

Qattiq o‘zak-negizlarda:

unli va jarangli undoshdan so‘ng -g‘a: suvg‘a;

jarangsiz undoshdan so‘ng -qa: qapqa, atqa.

Yumshoq o‘zak-negizlarda:

unli va jarangli undoshdan so‘ng -gə: jergə;

jarangsiz undoshdan so‘ng -kə: ishkə, jipkə.

I va II shaxs egalik qo‘shimchalaridan so‘ng dj-lovchi shevalarda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qattiq o‘zak-negizlarda -a (atama, atanga), yumshoq o‘zak-negizlarda -ə (ishimə, ishingə) shaklida keladi.

III shaxs egalik qo‘shimchalaridan so‘ng esa qattiq o‘zak-negizlarda -na (bolasina), yumshoq o‘zak-negizlarda -nə (sərkəsinə) qo‘llanadi.

Dj-lovchi shevalarda shaxs va ko‘rsatish olmoshlari jo‘nalish kelishigi bilan turlanganda mag‘an // mæg‘ən, sag‘an // sæg‘ən, og‘an, shog‘an shakllari yuzaga keladi. Bunda n va g‘ tovushlarining metatezasi ro‘y bergan (manga → mag‘an).

Y-lovchi shevalarda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari bir necha xil ko‘rinishda ishlatiladi.

Toshkent va Farg‘ona shevalarida:

-gə (uygə), -kə (otkə), -qə (boqqə).

Xorazm, Xiva–Urganch shevalarida:

-g‘a (qurvaqag‘a), -yə (tengəyə), -ə (ekizə), -nə (yanına, erkinə).

Qorabuloq shevasida ham joʻnalish kelishigi qoʻshimchalari Xorazm shevasidagiga oʻxshash shakllarda qoʻllanadi.

Shevalarda egalik qoʻshimchalari

Oʻzbek shevalariga xos egalik qoʻshimchalari K. Nazarov tomonidan professor A. Gʻ. Gʻulomov rahbarligida maxsus oʻrganilgan. Egalik qoʻshimchalari predmetning uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildiradi hamda birlik va koʻplik shakllariga ega.

Y-lovchi Fargʻona va Xorazm shevalarida egalik qoʻshimchalari adabiy tilga mos holda qoʻllansa-da, boshqa y-lovchi (Jizzax, Toshkent, Parkent) shevalarida hamda j-lovchi oʻzbek shevalarida ular maʼlum darajada farqli xususiyatlarga ega. J-lovchi shevalarda egalik qoʻshimchalari oʻzak-negizning qattiq va yumshoqligiga qarab bir necha variantlarda qoʻllanadi.

Unli bilan tugagan oʻzak-negizlarda

Birlik, qattiq oʻzak-negizda

Shaxs

Qoʻshimcha

Misollar

I sh.

-m

atam, toqlum

II sh.

-ng

atang, toqlung

III sh.

-si, -su

atasi, toqlusu

Namangan shevasi:

Birinchi shaxs birlik: -utt̤m̤n — misol: kelutt̤m̤n

Ikkinchi shaxs birlik: -utt̤ng — misol: kelutt̤ng

Uchinchi shaxs birlik: -utti — misol: kelutti

Birinchi shaxs ko‘plik: -utt̤m̤z — misol: kelutt̤m̤z

Ikkinchi shaxs ko‘plik: -utt̤ngiz — misol: kelutt̤ngiz

Uchinchi shaxs ko‘plik: -utt̤lar — misol: kelutt̤lar

Xulosa

O‘zbek shevalaridagi morfologik tizim adabiy til bilan bir qator o‘xshash va farqli xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Kelishik va tuslovchi qo‘shimchalari shevalarda hududiy xususiyatlar bilan boyitilgan bo‘lib, o‘zak-negizning qattiq yoki yumshoq bo‘lishi, unli yoki undosh bilan tugashi, shuningdek, lablangan tovushlarning mavjudligi fonetik variantlarni belgilaydi.

Kelishiklar tizimi:

Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Xorazm va Qarshi shevalarida kelishik qo‘shimchalari bir necha fonetik shaklga ega bo‘lib, tushum, qaratqich, o‘rin-payt, jo‘nalish va chiqish kelishiklarini aniq ifodalaydi.

Bosh kelishik shevalarda adabiy til kabi alohida grammatik ko‘rsatkichga ega emas, bu esa shevalardagi morfologik ixchamlik va sodda struktura bilan bog‘liq.

Tuslovchi va shaxs-son qo‘shimchalari:

Dj-lovchi va y-lovchi shevalarda shaxs, birlik-ko‘plik va zamon ko‘rsatkichlari turlicha ifodalanadi.

Misol uchun, Toshkent shevasida -v̤t̤rm̤n, Namangan shevasida -utt̤m̤n qo‘shimchalari birinchi shaxs birlikni bildiradi.

Ko‘plik va uchinchi shaxs shakllari ham shevalararo farqlarga ega bo‘lib, hududiy morfologik boylikni namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.. Aliyev A. Namangan guruh shevalari // O‘TA. 5-son. T., 1969.
 - 2.. Abdullaev F.A. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. T., Fan, 1978.
 - 3.Ibrohimov S.I. O‘zbek tilining Andijon shevasi. T., 1967.
 - 4.Mahammadjonov Q. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. T., Fan, 1983.
 - 5.Nazarov K. Qa'ni shevasida egalik affiksining formalari // O‘TAM. 5-son. T., 1963.
 - 6.Shoinoyatova M.Sh. Padeji v uzbekskix govorax. AKD. T., 1971.
 - 7.O‘zbek shevalari morfologiyasi. T., 1984.
 - 8.G‘ulomov A. G‘. O‘zbek tilida kelishiklar. SSSR FA O‘zbekiston filiali asarlari. 2-seriya, filologiya. T., 1941.
 - 9.Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek lahjasi. T., Fan, 1977.
 - 10.Jumanazarov Yu. Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlari. T., 1961.
 - 11.Aliyev A. Uychi shevasi // O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. T., 1961. 348–359-betlar.
 - 12.Nazarov K. O‘zbek shevalarida egalik ma’nosining ifodalanish yo‘llari // O‘zbek filologiyasining ba’zi bir masalalari. T., Fan, 1968. 9–15-betlar.
 - 13.Nazarov K. Shimoliy O‘zbek shevalari haqida // O‘zbek filologiyasi masalalari. T., 1970.
- Shermatov A. Qarshi shevasida kelishik va egalik qo‘shimchalari // O‘TA masalalari. 3-son. 45–50-betlar.